



## **“Yanada ko‘proq tezlik” aksiyasining shartlari**

1. Ushbu shartlar “Yanada ko‘proq tezlik” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning amal qilish muddati – **2022 yil 22 apreldan 30 iyungacha.**
3. Aksiyada “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)ning ma‘lum tarif rejalarida Internetga keng polosali ulanish xizmatlaridan foydalanuvchi, “faol” holatda bo‘lgan, barcha jismoniy shaxs bo‘lgan abonentlar ishtirok etadi. Internet tarmog‘iga ulanish tezligining oshirilishi faqat Aksiya davrida, abonentning hisob-kitob davridan qat’i nazar amalga oshiriladi.
4. Aksiya doirasida «YANGI - 3» va «YANGI - 4» tarif rejalarida Internet tarmog‘iga ulanish tezligi oshirilgan vaqt soat 00:00 dan 18:00 gacha uzaytiriladi. Mavjud texnologiyaga ko‘ra, Internetga ulanish tezligi quyidagicha bo‘ladi:  
  
FTTB - 100 Mbit / s;  
  
GPON - 200 Mbit / s.
5. Aksiya mavjud va yangi abonentlar uchun qo‘llaniladi.
6. Kompaniya Aksiya boshlanganligi to‘g‘risida tegishli ma‘lumotlarni Internet tarmog‘idagi [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) rasmiy veb-saytida va boshqa aloqa vositalarida joylashtirish orqali xabardor qiladi.
7. Kompaniya tegishli ma‘lumotlarni [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) rasmiy veb-saytida joylashtirish yoki boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilish yo‘li bilan Aksiya shartlarini o‘zgartirishga haqli. Ishtirokchilar yuqoridagi saytda tegishli o‘zgarishlarni mustaqil ravishda tekshirishlari mumkin.